

## VARIATIV MODELASHTIRISH ASOSIDA TALABALARNING PEDAGOGIK E'TIQODINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Oripova N.X.,**

*QarshiDU Maktabgacha ta'lim kafedrası  
mudiri, n.φ.đ.(DSc), professor*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida variativ modellashtirish asosida talabalarning pedagogik e'tiqodini shakllantirish muammosi o'zgaruvchan ta'lim muhitida dolzarb muammolardan biri ekanligi, variativ ta'lim va variativ modellashtirish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili yoritilgan. Shuningdek, maqolada pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning komponentlari, yondashuvlari, tamoyillari, usullari, metodlari aks etgan. Variativ modellashtirish muammosi hozirgi davrda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida samarali foydalanib kelinayotgan ta'lim turi bo'lib, u bugungi davr talabalarida ta'lim olishga nisbatan qiziqishni rag'batlantirishi bilan birga, ulardagi individuallikni faollashtirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *modellashtirish, variativ modellashtirish, variativ ta'lim pedagogik e'tiqod, pedagogik ta'lim, oliy ta'lim, shaxs, tomoyil, shakl, usul, metod, modifikatsiya, xilma-xillik, nomuvofiqlik, o'zgaruvchan, kompetentlik.*

**Annotation:** *in this article, the problem of forming the pedagogical beliefs of students on the basis of variable modeling in the process of higher education is one of the pressing problems in a changing educational environment; the analysis of research works on the issues of variable education and variable modeling is highlighted. The article also reflects a variable model of the formation of pedagogical beliefs and its components, approaches, principles, methods and techniques. The task of variable modeling is a type of training that is effectively used in the education system of developed countries at present.*

**Key words:** *modeling, variational modeling, variational education pedagogical belief, pedagogical education, higher education, individual, principle, form, method, method, modification, diversity, inconsistency, variable, competence.*

**Kirish (Introduction).** *Jahonda globallashtirish jarayonlarining intensivlashuvi shaxsda e'tiqodiy qarashlarning barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirib, ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida shaxs e'tiqodini shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, pedagogik ta'lim jarayonining variativ modellarini ishlab chiqish va pedagogik*

jarayonda amaliy foydalanish natijalari bo'yicha AQSH, Yaponiya, Angliya, Germaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Bu kabi rivojlangan davlatlardagi xorijiy tajribalar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik e'tiqodini shakllantirishda variativ modellashtirishdan foydalanish jarayonini takomillashtirish hamda pedagogik jarayonda shaxs e'tiqodini uning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlari asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasi oldiga qo'yilayotgan davlat va ishlab chiqarish talablari uni tez sur'atlarda o'zgartirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Xususan, oliy ma'lumotli pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning uzluksiz malakasini oshirish hamda ta'lim tizimida variativlik, integrativlik, differensiallik tamoyillarining ustuvorligini qaror toptirish, ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagogik kadrlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi ishlar tizimli va izchil amalga oshirib kelinmoqda. "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim, ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimiz eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak" [2; 229]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda talabalar pedagogik e'tiqodini shakllantirish muammosining nazariyasini tizimlashtirish, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili (Literature review).** Ma'lum bo'lishicha, shu paytgacha jahonning ko'plab olimlari variativ ta'lim shakllari, uning mazmuni va modelini yaratish borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, variativ ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashda MDH davlatlari olimlaridan V.V.Pikan, A.G. Asmolov, YE.I.Sanina, L.I.Kulagina, YE.V. Kleymenova, A.V. Zolotareva, T.V.Jivokoreneva, I.A. Galatskova, I.M.Gopbatkinalarning yondashuvlari diqqatga sazovor.

Nomlari keltirilgan ushbu olimlarning deyarli ko'pchiligi variativ ta'limni zamonaviy ijtimoiy madaniy muhitdagi ahamiyatini yuqori baholab, uni shaxsdagi individual ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida e'tirof etadilar.

Variativ ta'lim (ta'lim jarayonini pedagogik boshqarishning zamonaviy ko'rinishi bo'lib, u ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishining o'zaro bog'liq funksiyalarini amalga oshiradigan o'zgaruvchan ta'lim shakli [10;144].

I.A.Galatskovaning tadqiqot ishida o'quvchilarni maktab muhitiga moslashuvchanligini ta'minlashda variativ modellashtirishning yo'nalishlari tadqiq etilgan. Shuningdek, tadqiqotchi ushbu izlanishida o'qituvchilar egallashi lozim bo'lgan psixologik-pedagogik kompetentlik, variativ ta'limni tashkil etish aspektlari, bosqichlari haqida fikr yuritadi [5; 27-6.].

YE. I.Sanina, A.M.Maskayevalar “Variativnoye obucheniye kak odno iz napravleniy modernizatsii obrazovaniya” nomli maqolasida variativ ta’limni ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning asosiy yo’nalishi deb hisoblaydilar. Shuningdek, izlanuvchilar ushbu maqolasida variativ ta’limning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, uning nisbatan yangi tushuncha ekanligini va ta’lim muhitida takomillashib borayotganligini e’tirof etadilar. Ularning fikricha, variativ ta’lim jarayonida tanlov muhim hisoblanadi va u variativ ta’limning asosiy kategoriyasidir. O’quvchi bu jarayonda quyidagilarni: ta’lim muassasasi, fan, o’quv reja, fan dasturi, fanlar, elektiv kurslar, o’quv jarayonining turlarini tanlashi mumkin [11; 7-10].

Psixolog A.G.Asmolov variativ ta’lim haqida fikr bildirar ekan, uni shaxsga o’z taqdirini tanlash imkoniyatlarini taqdim etadigan ta’lim turi deb e’tirof etadi. Shuningdek, A.G.Asmolov variativ ta’limni muqobil ta’limdan farqli jihati sifatida shaxsga o’zgaruvchan dunyoda bilimlarni tushunish va tajriba orttirish usullarini egallash, hayot yo’lini to’g’ri tanlash, o’zini o’zi rivojlantirishga qaratilgan jarayon sifatida tushuntiradi.

Variativ ta’lim – shaxsni turli xil hayotiy vaziyatlar, holatlarga yo’naltirish va insonlarning ko’p asrlar davomida to’plagan tajribalari, fikrlash usullari, qobiliyatlarini o’zlashtirishga yordam beradi, deb tushuntiradi [4; 264].

Shu bilan birga, tadqiqotchi T.V.Jivokoreneva, variativlik tushunchasining mohiyatini variantlardan tashkil topgan bir nechta variantlar orqali taqdim etilgan variant-modifikatsiya, xilma-xillik, nomuvofiqlik, o’zgaruvchan kabi tushunchalar majmui sifatida ifodalash maqsadga muvofiq” [7;187-193-b.]–deb tushuntiradi. U mazkur tushunchani tahlil qilar ekan, quyidagi muhim pozitsiyalarni ajratib ko’rsatish kerakligini ta’kidlaydi. Bular: ko’plik konsepsiyaning miqdoriy xarakteristikasi sifatida (ko’p) va konsepsiyaning sifat tavsifi sifatida (turli nuqtalarning mavjudligi). Bundan ko’rinadiki, variativlik ijtimoiy hayotda o’ziga xos, ko’p qirrali jarayon sifatida namoyon bo’ladi.

I.M.Gopbatkinaning ilmiy izlanishlari bo’lajak o’qituvchilarni psixologik-pedagogik tayyorlash muammosiga bag’ishlangan bo’lib, u bu jarayonda o’qitishning variativlik tamoyilini tatbiq etish muhim, deb e’tirof etadi [6; 16]. Demak, variativ ta’lim ( insonning hayot yo’lini to’g’ri tanlash imkoniyatlarini kengaytirishga va shaxsning o’zini o’zi rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan N.SH.Abdullayevaning ilmiy izlanishlarida maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish muammosi tadqiq etilgan. Tadqiqotchi variativlik tushunchasining mazmunini tahlil qilarkan, uni quyidagicha ifodalaydi: “Variativ ta’lim – ta’lim tizimining sifatini anglatadi, bu

esa tarbiyalanuvchilarni ta'lim dasturlari yoki muayyan turdagi ta'lim xizmatlarini yaratish va ularga o'zlarining o'zgaruvchan ta'lim ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida tanlash imkoniyatini belgilaydi" [3; 54].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Shaxs e'tiqodini shakllantirish va pedagogik jarayonni variativ modellashtirish muammosi dunyoqarash va e'tiqodning bilimlarga, hissiy-emotsional tuyg'ularga, xulosa va tajribalarga asoslangan ko'rinishlarini shaxs qadriyatlarini, ideallari, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchiga moslashtirish asosida aniqlanadi; talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirish variativ modelining jarayonli va mazmunli bloki pedagogik e'tiqodning pedagogik bilim, pedagogik sadoqat, pedagogik fidoiylilik, pedagogik vijdon, pedagogik halollik, vatanparvarlik kabi mezonlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtiriladi; talabalar pedagogik e'tiqodini shakllantirish tizimi variativ o'quv reja, variativ o'quv dasturi, variativ darslik va o'quv qo'llanmalar hamda variativ o'quv topshiriqlarini shaxsga yo'naltirilganlik, individuallik, insonparvarlik, ko'p darajalilik tamoyillari uyg'unligi asosida aniqlashtiriladi; talabalar pedagogik e'tiqodini shakllantirish texnologiyalari variativ modellashtirish asosidagi didaktik jarayonning tashkiliy-metodik, psixologik-pedagogik talablari bilan talaba shaxsiga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish yondashuvlarining integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtiriladi.

**Natijalar va muhokama (Result and Discussions).** Dunyoda fan va texnologiyalarning shiddatli rivoji, axborotlarning intensivlashuvi hamda jadallik boshqa sohalar kabi oliy ta'limda ham tezkorlik, o'zgaruvchanlik, har qanday sharoitlarda ham faoliyatning yuqori cho'qqisiga qarab intilish kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, bunday jarayonda jamiyat va shaxsning oliy ta'lim oldiga qo'yayotgan talablari ham yuqorilab bormoqda. Chunki yoshlar kayfiyatidagi yangiliklarga o'chlik, bir xillikdan bezish, tezkorlik ta'limning zamonaviyligi, o'zgaruvchanligini ta'minlashni talab etmoqda.

Ushbu ehtiyoj va zaruriyatdan kelib chiqib, variativ modellashtirish asosida talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirish muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida variativ modellashtirishdan foydalanish imkoniyatlari quyidagilar bilan ifodalanadi: pedagogik ta'limni zamonaviylashtirish, diversifikatsiyalash va differensiallashtirish; jamiyat va shaxs talablari asosida ta'limda o'zgaruvchanlikni ta'minlash; fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani amalga oshirish hamda takomillashtirish;

pedagogik e'tiqodni shakllantirish tizimini integrativ metodlar yordamida tashkil etish va rivojlantirish; talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirish komponentlari, mexanizmlari, manba va vositalari, shakllari, usullari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash.

Shuningdek, variativ modellashtirish quyidagi talablar asosida amalga oshirilishi lozim:

tavsifiy – OTMda ta’lim mazmuni va shakllari tayyorlanadigan kadrlarning ehtiyoj va qiziqishlari, o’zgaruvchanlikni tavsiflashi va variativ o’quv reja, variativ fanlar ixtisoslik zaruriyati va mahalliy hududlar imkoniyati va muammolaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishi, ularning tavsifi yoritilishi, ta’lim berish shakl va metodlarining aniqlab olinishi nazarda tutiladi;

tatbiqiy – variativ ta’lim shaklini joriy etish bosqichlarini o’z ichiga oladi. Bu qism quyidagi uch bosqichdan iborat bo’lishi kerak:

birinchi qism – talabalarga variativ o’quv reja va variativ fanlar ro’yxati taqdim etiladi hamda ular o’rtasida so’rovnoma o’tkazilib, qaysi o’quv reja bilan o’qitilishi va o’qitiladigan fanlar oydinlashtirib olinadi;

ikkinchi bosqich – variativ ta’limni amalga oshirish jarayonini o’z ichiga oladi. Shuningdek, mazkur jarayonda talabalar o’qitish shaklini tanlaydilar. Masalan, an’anaviy ma’ruza, diskussiv-muammoli ma’ruzalar, muammoli faol amaliy mashg’ulotlar, amaliy mashg’ulotlar, individual fakultativ mashg’ulotlar bo’lishi mumkin;

uchinchi bosqich – talabada variativ ta’lim muhitiga nisbatan mobillikni shakllantirish hamda ularda amaliy ko’nikmalarni tarkib toptirish;

to’rtinchi bosqich – tahliliy. Talabaning variativ fanlardan olgan baholari majburiy fanlar blokidan olgan baholari bilan solishtirib chiqiladi. Bunda umumiy holda talabaning individual yutuqlari diagnostika qilinadi. Yakuniy natijaviy-baholovchi bosqichda talaba egallagan bilim, ko’nikma va malakalar motivatsion, kognitiv va kreativ baholash mezonlariga ko’ra past, o’rta, yuqori darajalarga ajratiladi.

Umuman olganda, variativ modellashtirish talabalarda pedagogik e’tiqodni shakllantirish jarayonining tizimi va tizim elementlari o’rtasidagi aloqadorlikni ta’minlashga hamda variativ ta’lim jarayonini bir butun va yaxlit holda tasavvur qilishga, umumiy strategik va taktik vazifalarni belgilash hamda natijaviylikni ta’minlashga yordam beradi. Zero, talabada pedagogik e’tiqodni shakllantirish jarayoni aniq bir namuna, ya’ni variativ model asosida olib borilmasa, ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi. Ishlab chiqilgan variativ model quyidagi bloklarni o’z ichiga qamrab oladi:

maqsadli va motivatsion ehtiyojga asoslangan,  
jarayonli-mazmunli,  
tashkiliy-faoliyatga yo’naltirilgan,  
natijaviy-baholashga doir.



## **1-rasm. Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli.**

Variativ modellashtirish asosida talabalar pedagogik e'tiqodini shakllantirishda uning o'quv-me'yoriy asoslarini oydinlashtirishni talab etadi. Bular: variativ malaka talab, variativ o'quv reja, variativ fan dasturlaridir. Variativ malaka talab – o'zgaruvchan ta'lim muhitida ta'lim yo'nalishi bitiruvchisining umumiy bilim va kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablarni o'zida aks ettiradi.

Variativ malaka talab ma'lum bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash hamda variativ o'quv reja va variativ fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirilishini nazorat qiladi.

**Variativ o'quv reja – o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashtirilgan va ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan me'yoriy hujjat hisoblanib, unda o'quv faoliyatining shakllari, o'quv fanlari va ularning tarkibi, soatlar hajmi keltirib o'tilgan.**

**Variativ o'quv fani dasturi - variativ ta'lim mazmunini belgilaydigan asosiy me'yoriy hujjatlaridan biri. Unda o'quv fanlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmunining qisqacha tavsifi, mustaqil ta'lim va kurs ishlari mavzulari, samarali va zamonaviy ta'lim usullari, axborot va resurs manbalari aks etadi. Shuningdek, variativ fan dasturida o'quv fanlari bo'yicha talabanning o'zlashtirishi kerak bo'lgan asosiy bilimlari va zaruriy ko'nikmalari keltirib o'tiladi.**

Shuningdek, ushbu variativ modelda talabalar pedagogik e'tiqodini shakllantiruvchi omillarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Negaki, har bir shaxsning e'tiqodi ma'lum bir obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida rivojlanadi. Demak, shaxs e'tiqodining shakllanishi quyidagi omillar bilan bog'liq hisoblanadi:

- subyekt yoki ijtimoiy subyektlar birlashmasi (shaxs yoki jamoa, jamiyat);
- g'oya (din va mafkura);
- bilim va tajriba;
- axborotlar (kitoblar, OAV, internet).

Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirish tizimini takomillashtirish uchun bir qancha talablarga amal qilish lozim. Mazkur talablar, o'z navbatida, aniq qonun-qoidalar va tamoyillar ishlab chiqishni taqozo etadi. Taklif etilayotgan tamoyillar talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishga xizmat qilishi, pedagogik faoliyatga moslashuvchanlikni tarkib toptirishi, shuningdek, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirib borishi darkor. Ana shu maqsadda quyidagi tamoyillarni taklif etmoqchimiz: pedagogik bilimlarni egallashda ongliklik, faollik va mustaqillik tamoyili; nazariyaning amaliyot bilan birligi tamoyili; pedagogik kompetensiyalarni izchil va tizimli rivojlantirish tamoyili; pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning

birlikini ta'minlash qoidasi; talaba shaxsiga qadriyatli yondashuvni amalga oshirish tamoyili.

Ushbu modelda talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning yondashuvlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz: motivatsion, refleksivlik, adekvatlilik, akmeologik, integrativlik, differensiallik, pozitivlik, kreativlik.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ushbu yondashuvlar yordamida oliy ta'lim jarayonidayoq talabalarda pedagogik kasbiga nisbatan qiziqishlarining ortib borishi, egallagan bilimlari darajasini o'zlari tahlil qila olishi va bilim egallashda yo'l qo'ygan kamchiliklarini tuzatishi, pedagogik kasbiga mos holda ma'naviy-axloqiy yuksalib borishi e'tiborga olinadi.

Bizningcha, talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- milliy qadriyatlar;
- oilaviy an'analar;
- yozma manbalar;
- jamiytdagi mavjud kasblar;
- uzluksiz ta'lim jarayoni.

Variativ ta'limda uni tashkil etuvchilar faoliyati ham muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ular variativ modelni harakatga keltiruvchilar bo'lib, ularning faoliyati asosida o'zgaruvchan ta'lim-tarbiyaviy jarayon tashkil etiladi.

Sohaning mutaxassislari – professor-o'qituvchilar. Talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi va ularni o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishiga ko'maklashadi. Shu bilan birga, talabalarning oliy ta'lim jarayonida egallagan bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishga o'rgatadi, variativ ta'limning o'quv-me'yoriy ta'minotini ishlab chiqishda ishtirok etadi hamda talabalarning pedagogik e'tiqodini shakllantiradi.

Moderator – variativ modellashtirish asosida talabaning bilish faoliyatini faollashtiradi. Ular bilan birgalikda tashkil etiladigan ma'nafiy-ma'rifiy tadbirlar, seminar, trening, davra suhbatlari va forumlarga boshchilik qiladi.

Tyutor (lot. "tutorem") – talabani o'quv jarayoniga yo'naltiradi va o'qitiladigan variativ fanlarni tanlashda ishtirok etadi, professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasida ta'limiy aloqani o'rnatuvchi murabbiy.

Edvayzer (fr. "avisen" – "o'ylamoq", "advisor" – "o'ylovchi") talabaning bitiruv malakaviy ishlari, kurs loyihalarining bajarilishini nazorat qiluvchi hamda mazkur ishlarni ta'lim oluvchilar tomonidan individual, mustaqil bajarilishida uslubiy yordam beruvchi maslahatchi.

Fasilitator (lot. "facilis", ingl. "facilitator" – yengil, qulay) – variativ ta'lim jarayonida ta'lim olayotgan talabani ruhiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlovchi, ularning

muammolarini yechishda yordam ko'rsatuvchi, talabaning o'zaro axborot almashinuvini rivojlantiruvchi, shu bilan birga, faoliyatini xolisona baholovchi pedagog.

Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirish usullari ham variativ holatda tanlanadi. Ya'ni bunda talabaning qiziqishlari birinchi o'rinda inobatga olinadi. Bizga ma'lumki, an'anaviy ta'limda ta'lim usullari va shaklini o'qituvchi tanlaydi va natija har doim ham kutilgandek bo'lavermaydi. Shu bois variativ ta'lim jarayonida ta'lim usullari va metodlari talaba tomonidan tanlansa, uning samarasi yuqori bo'ladi.

Zero, kishining o'ziga sevimli bo'lgan mashg'ulotda ishtirok etishi unga zavq bag'ishlaydi. Shu bois o'qituvchilar dars boshida talabaga bir necha usul va metodlarni taklif etishi lozim. Bularga variativ ta'lim shakli sifatida: virtual sayohat, mikro darslar, vebinar ma'ruzalar, shu bilan birga, tarbiyaviy tadbirlardan davra suhbatlari, psixologik mashqlar, mutaxassis uchrashuvlari, aksiyalar, ko'rik-tanlovlar, sayohatlarning turli-tuman shakllarini ixtiyoriylik asosida tanlash taklif etiladi. "Venn diagrammasi", "T-jadvali", "Qarorlar shajarasi", "Assessment", KWL/KWHL kreativ" texnologiyasi, SCAMPER strategiyasi va keyslar esa ushbu jarayon texnologiyalari.

Demak, biz taklif etayotgan variativ modelda talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning maqsadi, tamoyillari, manbalari, tizim, shakllar, usul va boshqalar aks etgan bo'lib, ular biz tadqiq etayotgan muammo samaradorligining oshishiga olib keladi.

**Xulosa.** Pedagogik jarayonni variativ modellashtirish oliy ta'lim jarayonida talabalarda ta'lim olishga rag'batni kuchaytirishi bilan birgalikda, pedagogik jarayonda differensial yondashuvning ustunlik qilishiga, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarining ustuvorlik qilishiga, ta'lim sifatining oshishiga, raqobatning kuchayishiga, ta'limning turli modellarining yaratilishi asos bo'lmoqda. Olib borgan tahlillarga ko'ra amalda foydalanib kelinayotgan o'quv-me'yoriy hujjatlar: DTS, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlari mazmunida variativ ta'limga e'tibor qaratilmagan. Talabalarga standartlashtirilgan, bir xil qolipga ega fanlar o'qitilib kelinmoqda. Ayniqsa, ayrim OTMlardagi tanlov fanlari ko'p yillardan buyon o'z mazmunini bir shaklda saqlab kelmoqda. Shu bois pedagogik kadrlar tayyorlovchi OTMlar tanlov fanlarini va ularning mazmunini tez-tez yangilab borishi, fan-ta'lim va ishlab chiqarish ehtiyojlarini o'rgangan holda takomillashtirishi lozim.

Mavjud manbalar tahliliga ko'ra, variativ ta'lim ijodiy faoliyat jarayonida shaxsning individuallik xususiyatini rivojlantiruvchi omil sifatida izohlanadi. Bilamizki, ayrim talabalar ta'lim jarayonida egallagan bilimlarini aniq amaliy vaziyatlarda qo'llashda qiynaladilar va ulardagi ko'nikmalar asosan reproduktivlik

kasb etadi. Variativ ta'limda esa talabalar egallagan bilimlarida ijodiy yo'nalganlik kuchayadi. Demak, o'qitishning variativligi bo'lgan jarayonda talabalarning ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi va talabi kuchayib boraveradi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda talabalarda dasturiy ta'minot, o'qitishning tashkiliy shakllari va vositalarini tanlash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida talabalarning pedagogik bilimlarni egallashga nisbatan motivining o'sib borishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 490 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021, – 464 б.
3. Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферат. – Тошкент: 2019. – Б. 54.
4. Асмолов А. Г. Психология XXI века и рождение вариативного образовательного пространства России // Новое время – новая дидактика: Педагогические идеи Л. В. Занкова и школьная практика. Сборник статей, посвященных 100-летию со дня рождения Л. В. Занкова. – Москва, «Федоров», 2001. – С. 264.
5. Галацкова И.А. Моделирование вариативных образовательных маршрутов учащихся как средства обеспечения адаптивности школьной среды. Автореферат. –Ульяновск: 2010. – С. 27.
6. Горбаткина И.М. Формирование готовности студентов педагогических вузов к профессиональной деятельности в условиях вариативного образования: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук : 13.00.01 / –Москва: город. пед. ун-т. – Москва, 2003. – С. 16.
7. Живокоренцева Т.В. Вариативность образования: проблемное поле современных интерпретаций// Вестник ИГЛУ. № 4 2012. – С. 187-193.
8. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию // Педагогика.
9. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2004. – С. 20.
10. Пикан В.В. Технология вариативного обучения – Москва: Перспектива, 2008. – С. 144.

11. Санина Е. И., Маскаева А. М. “Вариативное обучение как одно из направлений модернизации образования”. Москва, “Преподаватель XXI века”. - № 4. - 2010. – С.7-10.

12. Козырева В.А. Радионовой Н.Ф. Компетентностный подход в педагогическом образовании: Коллективная // Монография. – СПб: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2004. – С. 392.